

SINONIMIYA VA ANTONIMIYA HODISASINING GRADUONIMIYA BILAN SEMANTIK FARQLANUVCHANLIK MUNOSABATLARI

Kasimova Muqaddas Bekpo'latovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7525542>

Annotatsiya: maqolada graduonimiyaning sinonimiya va antonimiya hodisalariga o'xshash va farqli tomonlari, graduonimiya va sinonimiya masalalarining Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli asarida o'rganilishi, leksemalarning semantik tabiati va sememalarning semantik mundarijasini aniq belgilashdagi eng to'g'ri yo'llardan biri sifatida leksik ma'noni semalarga bo'lib o'rganish ekanligi ilmiy dalillar bilan asoslangan. antonimiya graduonimiya asosida shakllanadi. Aslida graduonimiya semantik darajalanishlarga asoslangan bir umumiy yo'nalishli qator bo'lsa antonimiya shu qatorning turli qismlari o'rtasidagi semantik farqlanuvchanlik-zidlanuvchanlik munosabatlaridir.

Kalit so'zlar: graduonimiya, semema, sema, lug'aviy ma'nodoshlik, darajalanishning umumiy atash semalari, semantic farqlanuvchanlik.

1. Sinonimiya	Graduonimiya	2. Antonimiya	Graduonimiya
Asosiy ma'nolarning tengligi	Asosiy ma'nolarning teng emasligi	Farqlovchilikka	Farqlovchi ma'lum belgi miqdorining katta yoki kichikligida namoyon bo'ladi. ¹
Aynanlik	Farqlilik	Farqlilik	Farqlilik

Tadqiqotchi A.Eshmuminov "O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi" nomli filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida atoqli tilshunos olim A.Nurmonovning fikrlariga tayangan holda graduonimiya va sinonimiya masalalarini Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli asarida alloma eski o'zbek tili va forsiy tilning imkoniyatlarini o'zaro qiyoslash evaziga turkiy tilning fors tilidan ustun jihatlarini ochib bergan degan xulosaga keladi.² U sinonimik uyalarga diqqat qaratib, mazmunda o'xshash so'zlarning ma'no nozikligini ajratish evaziga, ularning farqlanishini mavjud holatlar asosida ko'rsatib bergan. Masalan, "ichmoq, sipqormoq, tamshimoq (suv ichmoq), yig'lamoq, yig'lamsinmoq, ingramoq, singramoq, o'kurmok, yig'ichqirmoq, siqtamoq, hoy-hoylab yig'lamoq (yig'lamoq), yasanmoq, bezanmoq (pardoz qilmoq). Navoiy yuqoridagi fe'llarning ba'zilar umumiy, birlashtiruvchi

¹ Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 131.

² Эшмунинов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. фалс.док. ... дисс. – Қарши, 2022. – Б. 15.

sememasi bilan bir paradigmani hosil qilsa ham, lekin paradigma a'zolarining har qaysisi muayyan farqlovchi sememaga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan, *ingramoq*, *singramoq*, *o'kurmak*, *inchkirmok*, *yig'lamoq* so'zlari «yig'lamoq» birlashtiruvchi sememasi bilan bir paradigmaga mansub bo'lsa ham, lekin ularning har qaysisi yig'lashning xilma-xil ko'rinishlarini ifodalaydi. Bir-biridan yig'lash darajasi bilan farqlanadi. Shoir fikrini isbotlamoq uchun bu so'zlar ishtirok etgan badiiy asarlardan parchalar keltiradi"³. Alisher Navoiy dalil uchun keltirilgan leksemalarning har qaysisini she'r ichida ishlatadi va bu so'zlarning matn tarkibidagi badiiy-estetik rolini ko'rsatib beradi. Fors tiliga aynan tarjima qilish mumkin emasligini isbotlaydi va bu bilan ham turk tilining go'zal tomonlarini ochishga harakat qiladi. Shoir sinonimik uya tarkibidagi so'zlarning o'ziga xos farqlovchi ma'nolarini topar ekan, leksema semantik tuzilishining uzviy tahliliga yaqin bo'lgan usuldan foydalanadi⁴. Alisher Navoiy o'zining badiiy ijodida, ayniqsa, sinonimlarga ko'p murojaat qilgan. Zotan, sinonimlar o'tmishda bo'lgani singari hozirgi paytda ham badiiy stilistikaning asosiy o'zagini, uning joni va qonini tashkil qiladi⁵.

O'zbek tilida lug'aviy sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabatini o'rgangan tadqiqotchi G.Rahmonov o'zbek tilshunoslaridan Sh. Rahmatullaev, R.Yunusov, E.Qilichev, E.Begmatov, H.Ne'matov, A.Nurmonov, R.Rasulov, S.G'iyosov, R.Safarova, O.Bozorov, D.Xo'jaeva, Sh.Orifjonova, H.Shamsiddinov, L.Xudoyberdieva, N.Shirinova, J.Djumabaevalarning bu boradagi tadqiqotlarini e'tirof etadi⁶. Ta'kidlash zarurki, XXI asrning birinchi o'n yilligi mobaynida o'zbek tilshunosligida jamiyat a'zolarida lingvistik tafakkurni rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor berildi. Xususan, maktab o'quvchilarining ijodiy fikrlashini o'stirish uchun "O'zbek tilining so'zlar darajalanish o'quv lug'ati"ning⁷ nashr ettirilishi bu boradagi jiddiy yutuq bo'ldi deb aytish mumkin. Sinonimik qatorning chegarasini (bir sinonimik qatorga kiruvchi so'zlarni) belgilab olish uchun shu sinonimik qatordagi bosh so'zni aniq belgilash lozim bo'ladi. Shuningdek, har-qanday sinonimik qator ham darajalanish hodisasi sifatida qaralmaydi. Mazkur jihatlardan farqli, "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati"da⁸ "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" izohsiz sinonimik qator hoida kengaytirilib, sinonimik qatordagi bosh so'z (dominanta)

³ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –Б.88-89.

⁴ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –Б. 88-89.

⁵ Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадийий стиль. – Тошкент: Фан, 1988. –Б.110.

⁶ Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. фалс.док. ... дисс. – Қарши, 2022. – Б. 23.

⁷ Bobojonov Sh., Islomov I. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

⁸ Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. Maktab o'quvchilari uchun. – Toshkent, 2006.

belgilangan, ma'nodosh so'zlarning o'z yoki o'zlashma qatlamga mansubligi aniqlangan⁹. Albatta, ushbu jihatlar lug'atlar o'rtasidagi afzalliklarni belgilamaydi, aksincha, ularning vaqt sayin takomillashtirilgan tarzda chop ettirilishi ilm-fan va jamiyat rivoji uchun koni foyda. Shunga qaramay, "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati"da keltirilgan quyidagi munosabat e'tiborlidir: "Lug'aviy ma'nodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari har xil bo'lgan, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemalararo munosabat. Darajalanish esa umumiy atash semalari bir xil, lekin ma'lum bir semaning turli darajasini ifodalovchi leksemalar"¹⁰. Lug'at mualliflari ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning farqini ifoda semalari bilan bog'laydilar, zero darajalanish qatorida bunday tafovut kuzatilmaydi. Binobarin, Sh.Orifjonova graduonimlarda lug'aviy paradigma bir yetakchi (dominanta) atrofida birlashishini ta'kidlab, "darcha" va "darvoza" so'zlarining ma'nosi "eshik" yetakchi so'ziga nisbatan ochilishini qayd etadi va ularni darajalangan so'zlar qatoriga kiritadi¹¹. Modomiki, gap o'zbek tilshunosligidagi sinonimlar izohi haqida borarkan, bunda an'anaviy hamda sistem-struktur yondashuvlar ta'siri natijasida yuzaga kelgan tasniflar borasida ham to'xtalmoq joiz. Xususan, sinonimik qatordagi leksemalarning o'zaro munosabatini tekshirgan G'.R.Rahmonov, avvalo, ana shu leksemalarning semantik tabiati diqqat markazda bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi hamda sememalarning semantik mundarijasini aniq belgilashdagi eng to'g'ri yo'llardan biri sifatida leksik ma'noni semalarga bo'lib o'rganishni ko'rsatadi¹². Uningcha, sinonimiyani leksik ma'nolarning semalar bosqichidagi tahlilidan chiqib belgilanganda, "aynan bir ma'no" nima, "bir xil ma'no" nima, "yaqin ma'no" nima – aniq aytib bera olish mumkin. G'.R.Rahmonovning leksik ma'no tarkibiga ko'ra teng keluvchi sememalarning sinonim bo'lishi haqidagi qarashlari biroz bahsli. Garchi tilshunos "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da o'zaro sinonimlar deb keltirilgan *kuchli*, *baquvvat*, *zabardast*¹³ leksemalarini leksik ma'nolar tarkibi jihatidan teng deb baholasa-da ("kuchi, quvvati ko'p"; "yetarli"; "normal darajadan ortiq"; "yuqori"; "jismoniy qobiliyati baland"; "kuchsizning aksi"), bu leksemalarning nutqiy xoslanishi, qo'llanuvchanligini bildiruvchi belgilariga nisbatan farqli deb topadi.

⁹ Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. Maktab o'quvchilari uchun. – Toshkent, 2006.

¹⁰ Юқоридаги манба. – Б.5.

⁷⁰ Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. - Т., 1996. 19-б.

¹² Раҳмонов Ғ.Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Фарғона, 2018.

¹³ Ҳожиёв А. ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўқитувчи, 1974..Б. 127.

Shuningdek, tadqiqotchi: “bular asosida yotgan obrazning, ichki formaning sezilishi ham har xil: *kuchli* keng tushunchaga ega, *baquvvat* ma’noni kuchliroq ottenkada ifodalaydi, *zabardast* leksikasida esa belgi darajasi yana ham kuchli. Demak, til sinonimlarida leksik ma’nolar tarkibi jihatidan teng kelish prinsipiga amal qilinadi, nutq sinonimlari esa bunday asosdan xoli. Ularda umumiy leksik ma’nodan tashqari, har birining o’ziga xos leksik ma’nolari bor”, deya qo’shimcha qiladi¹⁴. Tilshunos A.Eshmuminov o’z tadqiqotida professor O.Bozorovning ba’zi sinonimik qatorlar ma’nodoshlik qatori emas balki mazmuniy graduonimiya ekanligi haqidagi fikrlarini qo’llab-quvvatlaydi¹⁵ Sinonimik qator leksemalari bitta semaning turli darajalarini ifodalaydi va shu asnoda farqlanadi. *Kuchli, baquvvat, zabardast* sinonimik qatorida “jismoniy kuchga egalikning ortiqligi” *kuchlidan zabardastga* tomon darajalanmoqda. Bu kabi sinonimik qatorlarda atash semasi bilan birga ifoda semasining ham darajalanib borishini ko’rish mumkin. Masalan, zukkolik belgisining (denotativ) tadrijiy kamayib borishiga salbiy munosabatning (konnotativ) oshib borishi darajalari to’g’ri keladi: *sodda - ovsar - go’l - laqma - pandavaqi - merov*. Sinonimiyaning bu turini ayrim tilshunoslar ma’nodoshlik munosabati deb hisoblamaydilar. Bunday ma’no munosabatini mazmuniy graduonimiya deb baholaydilar¹⁶.

Sinonimiya va graduonimiyaning o’zaro munosabati haqida O.Bozorov o’zining quyidagicha nazariy fikrini bildiradi: “sinonimiya tarkibidagi darajalanishga oid nozik farqlar aslida sinonimiyaning emas, balki graduonimiyaning preferik (graduonimiyaning sinonimiya ichiga kirib borishi, tutashishi) belgilaridir”¹⁷. Olim o’z fikrini davom ettirib antonimiya va graduonimiya munosabatlari haqida ham qimmatli fikrlarini bayon qiladi. Olimning fikricha, “...ko’p hollarda antonimiya graduonimiya asosida shakllanadi. Aslida graduonimiya semantik darajalanishlarga asoslangan bir umumiy yo’nalishli qator bo’lsa antonimiya shu qatorning turli qismlari o’rtasidagi semantik farqlanuvchanlik-zidlanuvchanlik munosabatlaridir. Shunday qilib graduonimiya antonimiyaga mohiyatan zid bo’lmay, uning umumiy umurtqa pog’onasini, aniqrog’i, antonimik juftlik shakllangan

¹⁴ Раҳмонов Ғ.Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Фарғона, 2018.

¹⁵ Эшмунинов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. фалс.док. ... дисс. – Қарши, 2022. – Б. 85.

¹⁶ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. - Тошкент, 1997

¹⁷ Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 84 б.

butunlikni tashkil etadi”¹⁸ deb tushuntiradi. Umuman olganda sinonimiya va graduonimiya leksik-semantik munosabatlar sistemasida bir-biriga eng yaqin boʻlgan munosabatlar sistemasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016.
2. Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. фалс.док. ... дисс. – Қарши, 2022.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
4. Bobojonov Sh., Islomov I. O`zbek tilining so`zlar darajalanishi o`quv lug`ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
5. Shukurov O., Boymatova B. O`zbek tilining ma`nodosh so`zlar o`quv lug`ati. Maktab o`quvchilari uchun. – Toshkent, 2006.
6. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. - Т., 1996.
7. Раҳмонов Ғ.Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Фарғона, 2018.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўқитувчи, 1974.
9. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. - Тошкент, 1997.

¹⁸ Yuqoridagi manba – 132 b